

SHAXSNI SHAKLLANTIRISHDA MUSIQANING O'RNI VA AHAMIYATI

Ozodjon Soipov

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Urganch filiali "Ta'lim sifatini nazorat qilish" bo'limi boshlig'i

Annotatsiya: Yosh avlod tarbiyasida musiqaning o'rni ahamiyatlidir. Musiqa boshqa san'at turlaridan farqli ravishda, u shaxsnинг eng nozik ichki tuyg'ularini, his-hayajonini, quvonchini, insondagi tugallanmas emotsiya zahiralarini ishga solishga qodir mo'jizali vositadir. Maqolada shaxsni kamolotini shakllantirishga musiqaning ta'limiylar va tarbiyaviy o'rni, o'ziga xos jihatlari va ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, buyuk mutafakkir va olimlarning musiqa san'ati haqidagi fikrlari keltiriladi.

Аннотация: Роль музыки в воспитании молодого поколения велика. Музыка, в отличие от других видов искусства, является прекрасным инструментом, способным использовать самые тонкие внутренние чувства, эмоции, радость, неисчерпаемые эмоциональные резервы человека. В статье говорится о воспитательной и воспитательной роли музыки, ее специфических аспектах и значении в развитии личности. Также представлены мнения великих мыслителей и ученых о музыкальном искусстве.

Abstract: The role of music in the education of the younger generation is great. Music, unlike other types of art, is an excellent instrument that can use the most subtle inner feelings, emotions, joy, and inexhaustible emotional reserves of a person. The article talks about the educational and educational role of music, its specific aspects and significance in personality development. The opinions of great thinkers and scientists about the art of music are also presented.

Kalit so'zlar: inson ruhiyati, musiqa, estetik tarbiya, san'at, madaniyat, estetik his-tuyg'u, yosh avlod.

Ключевые слова: психика человека, музыка, эстетическое воспитание, искусство, культура, эстетическое чувство, молодое поколение.

Key words: human psyche, music, aesthetic education, art, culture, aesthetic feeling, young generation.

Musiqaning inson ruhiyatiga ta'sir qilishining betakror imkoniyatlari haqida qadimdan musiqashunoslar, mutafakkirlar va olimlar diqqatini o'ziga tortgan. Faylasuflar, psixologlar, pedagoglar va jamoat arboblari san'atlar ichida musiqa san'atining insonni shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir qiladigan xususiyatlarini aniqlashga uringanlar. Qadim zamonlardan musiqaning, ayniqsa, uning komponentlari - ritm va kuyning inson kayfiyatiga ta'siri, ichki dunyosini o'zgartirishi haqida fikrlar mavjud bo'lgan.

Musiqa san'ati-inson ma'naviy olamini aks ettirib, uning aqliy, axloqiy va estetik tuyg'ularini rivojlantiradi. Zero, "Musiqa turli-tuman tovushlar bilan badiiy obraz yaratib beruvchi, g'oyaviy-emotsional mazmunga ega bo'lgan san'atning bir turi. Insonning jamiyatda tutgan mavqeyi, madaniy - tarbiyaviy, g'oyaviy tashkilotchilik rolida musiqa yuksak o'rinda turadi. Musiqadagi obrazlarni gavdalantirib beruvchi asosiy element – musiqa tovushidir. Musiqaning asosi – kuydir. Bundan tashqari ritm, lad, metr, garmoniyalar uning muhim vositalari¹.

Musiqa san'ati estetik tarbiyaning muhim omili sifatida shaxs shakllanishiga kuchli ta'sir etadi. Oilada, bog'chada, maktabda musiqa mashg'ulotlarini maqsadga muvofiq tarzda uyuştirish, yosh avlodning ichki dunyosini boyitish va san'atni to'g'ri tushunishdagi samarali yo'llardan biridir desak mubolag'a bo'lmaydi. Musiqa kishiga har tomonlama ta'sir ko'rsatar ekan kuy va uning musiqiy ifodasi

¹ Il. Akbarov "Muzika lug'ati". Toshkent. G. Gulom nashriyoti 1987 yil. – B. 209-210.

www.pedagoglar.org

3-to'plam 3-son yanvar 2024

inson tabiyatiga har xil tuyg‘ularni uyg‘otadi, turlicha kayfiyatlarni hosil qiladi. Ashulaning she’riy matni, mazmun-g‘oyasi nafaqat his-tuyg‘uga, balki tinglovchining aql-shuuriga ham nur baxsh etib, mantiqiy fikr-mulohaza yuritishga o‘rgatadi.

Musiqiy asarning g‘oyaviy mazmuni – tinglovchining ta’sirlanish darajasini belgilaydi. Musiqiy-estetik tarbiyaning vazifalari ham xuddi shu jarayondan boshlanadi. Musiqa o‘z xususiyatiga ko‘ra bolaning his-tuyg‘ulariga bevosita ta’sir etib, uning ma’naviy qiyofasini shakllantiradi. Musiqa san’atining tarbiyaviy imkoniyatlari keng, kuchi nihoyatda qudratli. Musiqa tili tarjimonsiz, barchaga tushunarli xususiyati bilan fikr va tuyg‘ularni ifoda etadi.

Musiqiy - estetik tarbiya yoshlarimizda milliy madaniy merosimizga hurmat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni qadrlashga o‘rgatadi. Musiqaning inson ruhiyatiga ta’siri masalalari azaldan donishmand-u mutafakkirlar diqqatini o‘ziga tortgan. Musiqiy tarbiyaning bolani shakllantirishdagi o‘rni va ahamiyati nihoyatda ulkan ekanligini ular alohida e’tirof etishgan. Donishmandlar fikriga ko‘ra bolada ilk davrlardan shakllanadigan insoniy fe’l-atvor, fazilat, sifatlarida aynan musiqa muhim vosita hisoblangan.

Musiqaning falsafiy mohiyati ham shaxs shakllanishida katta ahamiyatga ega. Ajoyib musiqa asarlari chuqur falsafiy mazmun bilan sug‘orilgan bo‘ladi, musiqada hayot va o‘lim, shaxs va jamiyat, ezgulik va zulm, qudrat va zaiflik kabi masalalar aks etadi. Musiqa inson his-tuyg‘ularini, orzu-umidlarini, xohish-istiklarini o‘ziga xos badiiy tilda ifoda etadi va kishining his-tuyg‘ulariga faol ta’sir etishi natijasida insonda falsafiy dunyoqarashning ham shakllanishiga zamin yaratadi.

Musiqashunoslik, uning nazariyasi va amaliyoti bilan shug‘ullanib ulkan musiqiy-pedagogik meros qoldirgan bobomiz Abu Nasr Forobiyning “Katta musiqa kitobi”, “Musiqa haqida so‘z”, “Ritmlar klassifikatsiyasi” va boshqa asarlari uning musiqa ta’limoti, musiqa ta’lim-tarbiya nazariyasi hamda amaliyotini puxta egalaganligidan dalolat beradi. Forobiy musiqaning eng avvalo shaxsning axloqiy sifatlarini shakllantirishdagi ijobiy fazilatlarini alohida ta’kidlab, “Musiqa shu ma’noda foydaliki, kimning fe’l-atvori muvozanatini yo‘qotgan bo‘lsa, tartibga

keltiradi, kamol topmaganlarini kamolga yetkazadi va muvozanatda bo'lganlarni muvozanatini saqlaydi”², - deb yozgan. Forobiy musiqa nazariyasi ilmi sohasida nihoyatda bilimdon kishi bo'lishi bilan birga uning amaliyotini ham puxta egallaganligi ma'lumdir. O'z davrida alloma ajoyib bir musiqa asbobi yasaganligi, undan juda ham go'zal, yoqimli kuylar eshitish mumkin bo'lganligi, hatto bu kuy tinglovchini juda zavqlantirib yuborganligi xususidagi ko'plab hikoyalarini tarixiy manbalarda yozib qoldirilgan. Shulardan birida Forobiy Shom amiri saroyiga kirib musiqa chalib u yerdagilarni uxlatib chiqib ketadi... Bu naql ham Forobiy musiqa nazariyasi donishmandigina emas, balki uning usta ijrochisi, amaliyotchisi ham bo'lgani haqida o'sha davrlarda paydo bo'lgan hikoyadir.

Buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sino musiqiy-pedagogik qarashlaridagi muhim jihat - musiqani inson faoliyati mahsuli, bola tarbiyasida muhim omil sifatida e'tirof etiladi. O'zining “Donishnoma” (“Bilimlar kitobi”) asarida musiqani “qadimiy hikmatli fanlar”dan biri sifatida ta'riflab, “*Musiqiy bilim, tovushlarning ohangdorligi va noohangdorligi, kuylarning xususiyatlariga oid bilim*”, - deydi. Go'zallik olamini, musiqaning mohiyatini teran anglagan alloma “Go'zallikni inson sezgi vositalari: ko'rish, eshitish, hidlash, ta'm bilish, ushlab ko'rish orqali bilib oladi, go'zallikni sezadi, undan lazzatlanadi”, - deb, ta'kidlaydi. Musiqa san'atining ko'pgina foydali xususiyatlari ta'riflangan “Risolatun fi ilmi-l musiqiy” (“Musiqa ilmi haqida risola”) asarida musiqiy tovush xususiyatlari, ayniqsa inson ruhiy kasalliklarini davolashdagi ahamiyati, his-tuyg'ulariga ta'siri haqida qimmatli fikrlar bildirgan. Kishida jism va ruh bir-biri bilan uzviy bog'liq ekanligi, jismda biror xastalik ro'y bersa, ruhiyat ham iztirob chekishini, muhimi esa musiqani aloqa vositasi, deb qarab ruhiy kasalliklarga chalingan kishilarni davolashda tanbur, g'ijjak, nay, chang singari sozlardan unumli foydalanishni tavsiya etgan. Musiqani shaxsning ma'naviy va jismoniy tabiatiga ta'sir etuvchi qudratli tarbiyaviy vosita sifatida e'tirof etib, bolalarni juda yoshligidan boshlab musiqiy hissiyotini tarbiyalash muhimligini - bu esa ruhiy holatni mustahkamlaydi, - degan g'oyani

² Abu Nasr Forobiy. She'r san'ati. Toshkent, 1979 y. – B.11.

www.pedagoglar.org

ilgari surgan.

So'z mulkining sulton Mir Alisher Navoiy xazratlari musiqaning inson ruhiyatiga ta'sir kuchini shaxsni shakllantirishdagi o'rni, tarbiyaviy ahamiyatini yuksak baholagan va bu san'at ilmi sir-asrorlarini o'rganishga harakat qilgan. Shogirdlarini ham shunga da'vat etib, she'riyatning musiqa ilmi bilan o'zaro bog'likligi qonuniyatini chuqur o'zlashtirishni talab etgan. Musiqaning nazariy asoslarini bilmay turib, yaxshi shoir bo'lish mumkin emasligini shogirdlariga ta'kidlagan.

Jadid bobolarimizda ma'rifatparvar tarixchi, filolog, tarjimon, yozuvchi, dramaturg va shoir Abdurauf Fitrat ham musiqaning inson tarbiyasidagi ahamiyati, musiqa asboblarining turlariva ijro usuli haqida qimmatli ma'lumotlar qoldirgan. Hatto musiqa san'atiga bag'ishlab "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" nomli asar yozib qoldirgan.

Mashxur polyak kompozitori K.Shimanovskiy o'zining "Jamiyatda musiqaning tarbiyaviy ahamiyati" nomli maqolasida, musiqaning tabiiy kuchi haqida gapirar ekan, uning ikki qarama-qarshi yo'nalishda - yaratish va buzish uchun ishlatish mumkinligini – "kerakli ishga yo'naltirgan holda, tez oqar daryoning suvlaridan foydalanib, foydali va unumli ishlar uchun, ya'ni tegirmonni aylantirish uchun ishlatgandek, musiqa kuchidan ham unumli foydalanish kerak", - degan.

Mutafakkir olimlar musiqani faqat insonga samarali ta'sir etuvchi vosita emas, balki o'z mohiyati, jamiyatdagi vazifasiga ko'ra alohida bir fan sifatida ham tadqiq etishgani, davrlar o'tib ularning fikr g'oyalari, musiqiy-pedagogik merosi ta'lim tarbiya jarayoniga tadbik etilib, ommaviy xalq musiqa pedagogikasini rivoj topishi, kasbiy musiqa ta'limi usuliyatini takomillashib borishiga asos bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Musiqaning insonga ta'siri, shaxsning va jamiyatning ruhiy hayotidagi o'rni kompleks muammo hisoblanadi. Ushbu murakkablik va serqirralik fanga darrov kelmadи. Shu o'rinda Asafevning "...musiqa - bu ham san'at, ham fan, ham til, ham o'yin" - degan so'zlarini eslash maqsadga muvofiqdir. Demak, talabalarning

musiqiy hamda shaxsiy xususiyatlarini shakllantirishda musiqa san'atining o'rni beqiyosdir. Musiqa kishiga har tomonlama ta'sir ko'rsatar ekan: kuy va uning musiqiy ifodasi kishining hissiyotiga chuqur ta'sir qilib, unda har xil hislarni uyg'otadi, turlicha kayfiyatlarni hosil qiladi. qo'shiqning matni, g'oyaviy mazmuni faqat hissiyotga emas, balki tinglovchilarining ongiga ham ta'sir qilib, ularni hayajonlantiradi va fikrlashga majbur etadi. Kishilarda asarda aks etgan ma'naviy muammolarga nisbatan muayyan munosabat uyg'otadi. Bunday ta'sir g'oyat murakkab va kuchlidir. Zero, musiqa yosh avlodning ma'naviy, badiiy-axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'ururi va vatanparvarlik tarbiyasini amalgaloshirishga, fikr doyrasini kengaytirishga, ijodiy mahorati va badiiy didi o'sishiga, mustaqilligi va tashabbuskorligini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Akbarov. Il. "Muzika lug'ati". T., G'.G'ulom nashriyoti 1987. – B. 209-210
2. Abu Nasr Forobiy. She'r san'ati. T., 1979. –B.11
3. Abdurauf "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi". T., "Fan" nashriyoti-1993. -57 b
4. Soipova D. Musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish. T., "Fan va texnologiyalar nashriyoti" 2005 y., -84 b
5. Апраксина О.А. Методика музыкального воспитания в школе. - М., 1989.
6. Абдулин А.Б., Кабалевский Д. Б. Теория и практика музыкального обучения в общеобразовательной школе.- М.,1983.